



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

2022-yil yanvar-may

2022-yil yanvar-may oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylariga,

Farg'ona viloyatida jami

2 654,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar- may oylariga nisbatan 108,1 %ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish sohasi mamlakatimiz
milliy iqtisodiyotining barqaror
o'sishiga o'zining munosib hissasini
qo'shib kelayotgan sohalardan
hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning soni 2021-yilning
mos davri bilan solishtirganda o'sish
sur'ati 107,3 % oshgan (255 birlik).**



Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,9 foizga oshgan (116 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,1 foizga oshgan (93 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,2 foiz ulushni va 104,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi (46 birlik).



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, birlik

	holatiga:		o‘tgan yilga nisbatan, %da
	01.06.2021-y.	01.06.2022-y.	
Farg‘ona viloyati	3482	3737	107,3
Farg‘ona sh.	968	1018	105,2
Qo‘qon sh.	384	355	92,4
Quvasoy sh.	160	126	78,8
Marg‘ilon sh.	383	331	86,4
Oltiariq	117	132	112,8
Qo‘shtepa	107	107	100,0
Bag‘dod	157	175	111,5
Buvayda	131	139	106,1
Beshariq	95	97	102,1
Quva	147	151	102,7
Uchko‘prik	186	199	107,0
Rishton	65	96	147,7
So‘x	33	86	260,6
Toshloq	126	147	116,7
O‘zbekiston	80	102	127,5
Farg‘ona	88	143	162,5
Dang‘ara	122	140	114,8
Furqat	66	86	130,3
Yozyovon	67	107	159,7

**2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat
ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-may oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 252,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 132,8 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 2,0 % punktga ko'payib, 9,5 %ni tashkil etdi.

**2022-yil yanvar-may
oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari**



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,8 %i yoki 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 112,2 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,9 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 206,7 % oʼsish surʼati) va Qoʼqon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 10,1 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 88,1 % oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022-yilning yanvar-may oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,8 %i to‘g‘ri kelib, 2021-yilning yanvar-may oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 0,6 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,4 %ni tashkil etgan holda 1827,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

69,4
2021-yil
yanvar-may

68,8
2022-yil
yanvar-may



Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (488,0 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 113,5 %), Qo‘qon shahri (215,5 mlrd. so‘m yoki 103,3 %), Marg‘ilon shahri (201,3 mlrd. so‘m yoki 107,7 %) va Buvayda tumani (99,9 mlrd. so‘m yoki 91,7 %) to‘g‘ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiyl hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 21,7 %ni tashkil etdi yoki 575,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 111,3 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 103,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 551,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,9 % va 96,1 %ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022-yil yanvar-may oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 77,5 %i yoki 2 056,6 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 212,3 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,3 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 519,7 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,3 %ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022-yil yanvar-may oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	2 654,8	108,1	2 056,6
Farg'ona sh.	635,9	107,8	482,9
Qo'qon sh.	279,7	104,3	158,3
Quvasoy sh.	68,9	102,0	68,0
Marg'ilon sh.	316,0	98,8	304,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	90,4	115,8	64,2
Qo'shstepta	120,4	132,6	92,1
Bag'dod	275,5	93,1	88,3
Buvayda	143,8	115,8	87,6
Beshariq	32,5	84,5	36,1
Quva	60,5	83,4	108,9
Uchko'prik	67,4	109,5	72,3
Rishton	52,9	119,1	35,9
So'x	30,9	103,6	55,6
Toshloq	106,4	149,7	89,3
O'zbekiston	100,1	128,6	88,7
Farg'ona	47,7	141,4	32,9
Dang'ara	97,9	114,2	71,1
Furqat	34,3	76,4	42,1
Yozyovon	93,7	149,0	77,3

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,3 %ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamayib, 64,6 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 28,1 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da

Yirik qurilish
tashkilotlari

Kichik korxona
va mikrofirmalar

Norasmiy
sektor

7,3

6,1

64,6

65,6

28,1

28,3

2021-yil
yanvar-aprel

2022-yil
yanvar-aprel




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 15,3 %ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,6 % (2,7 % punktga **ko'paydi**) hamda norasmiy sektoring ulushi 2,1 %ni tashkil etdi (1,4 % punktga kamaydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



2021-yil yanvar-may




Norasmiy sektor

2022-yil yanvar-may


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 8,9 % punktga ko'paydi va 19,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 80,9 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 8,9 % punktga kamaydi.



2022-yil yanvar-may oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi boʼlimi

Tel.: 73 241-98-42